



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 136-142 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MOLIYAVIY HISOBOTNI TUZISH TAMOYILLARI VA TUZISHGA QO`YILADIGAN TALABLAR



Sa`dullayeva Sayyora Nasillo qizi  
Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti 2-kurs magistranti  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillari va tuzishga qo`yiladigan talablar bo`yicha ma`lumotlar keltirilgan bo`lib, ularni nazariy masalalari ilmiy nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Moliyaviy hisobotning xo`jalik yurituvchi subyektlar jumladan, tijorat banklarida tutgan o`rni tahlil qilingan. Tadqiqot asosida moliyaviy hisobotni takomillashtirishga doir ilmiy taklif va xulosalar ishlab chiqilgan

**Kalit so`zlar:** tijorat banki, O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiy normativlar, yillik hisobot, joriy hisobot, moliyaviy holat, foyda va zarar, hisobvara

### ПРИНЦИПЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ И ТРЕБОВАНИЯ К ЕЕ СОСТАВЛЕНИЮ

**Аннотация:** данная статья содержит информацию о принципах составления финансовой отчетности и требованиях к ее составлению, а также научно исследованы их теоретические вопросы. Анализируется роль финансовой отчетности в субъектах хозяйствования, в том числе в коммерческих банках. На основе исследования разработаны научные предложения и выводы по совершенствованию финансовой отчетности.

**Ключевые слова:** коммерческий банк, Министерство финансов Республики Узбекистан, экономическое регулирование, годовой отчет, текущий отчет, финансовое положение, прибыли и убытки, счет.

### PRINCIPLES OF FINANCIAL REPORTING AND REQUIREMENTS FOR ITS PREPARATION

**Abstract:** this article contains information on the principles of financial reporting and the requirements for its preparation, and their theoretical issues are scientifically researched. The role of financial reporting in business entities, including commercial banks, is analyzed. Based on the research, scientific proposals and conclusions on the improvement of the financial report were developed

**Keywords:** commercial bank, Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, economic regulations, annual report, current report, financial situation, profit and loss, account

#### 1. Kirish

Moliyaviy hisobotlarining tarkibi va shakllari hamda ularni to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni tuzishda avvalo ularning ishonchliligi va bankning moliyaviy va operatsion faoliyatini to'liq aks ettirishi juda muhim ahamiyatga ega. Banklarda tayyorlanayotgan hisobotlar boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun shakllantirilib, ular to'liq, aniq hamda sifatli ma'lumotlar asosida tuzilgan bo'lishi zarur. Hisobotning mazmuni axborotdan foydalanuvchilarning mulklar, moliyaviy holat, foyda va zararlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilishi uchun istalgan faktlarni taqdim eta olishi lozim, shu bilan birgalikda, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati, moliyaviy holati va mulkiy barqarorligi kapital qo'yuvchi investorlarga ham qiziqish uyg'otadi. Moliyaviy hisobotlar investorlar, aksiyadorlar, bank mijozlari va foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lishi va ular qaror qabul qilishi uchun zaruriy barcha ma'lumotlar bilan ta'minlay olishi lozim.

## 2. Adabiyotlar sharhi

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi bozor iqtisodiyoti sharoitida mavjud tartib va boshqaruv tizimi asosida tashkil etilgan, buxgalteriya hisobining hisobotlari xo'jalik yurituvchi subyektlar va tashkilotlarning standartlari va qoidalari majmui. Foydalanish uchun majburiy bo'lgan buxgalteriya hisobidagi mavjud qoidalar va me'yorlarning umumiyliigi buxgalteriya hisobini har bir boshqaruv kengashida tashkil etilgan va muayyan funktsiyalarni bajaradi.

## 3. Tahlil va natijalar

Moliyaviy hisobot bu hisobot davri uchun korxonada faoliyati natijalari, tegishli tarzda taqdim etiladigan o'zaro bog'liq bo'lgan ma'lumotlar to'plami bo'lib, uni tuzish va e'lon qilish buxgalteriya uchun muhim tamoyil hisoblanadi. Tijorat banklari moliyaviy hisobotlarini Markaziy bank belgilagan shaklda va muddatda, auditorlarning undagi ma'lumotlar haqiqiy ekanligini tasdiqlagan holatda matbuotda e'lon qilishadi.

Banklarning hisobotlari oylik hamda choraklik hisobotlardan iborat. Oylik hisobotlar quyidagilar:

1. Balans (1-shakl)
2. Umumlashgan balans (bank bo'limlari bilan birgalikda)
3. Mulk shaklidan qat'iy nazar bank tomonidan berilgan muddati o'tmagan va muddati o'tgan kreditlar yoyilmasi
4. Jalb qilingan va yo'naltirilgan mablag'larni hisobga oluvchi ayrim balansli hisobvaraqlardagi summalarning yoyilmasi
5. Bank iqtisodiy normativlarini ifodalovchi hisobvaraqlardagi summalarning yoyilmasi
6. Iqtisodiy normativlar bo'yicha hisob-kitoblar
7. Korrespondentlik hisobvaraqdagi summalarning yoyilmasi
8. Banklarning boshqa balansli hisobvaraqlardagi summalari yoyilmasi


Tijorat banklarining oylik hisobotlari Markaziy bankning hududiy boshqarmalari va soliq organlariga taqdim qilinadi.

## 3-jadval

### Bank daromadlari, xarajatlari va kapital hisobvaraqlarining yuritilishi

Qoldiq hisob varaqlar debetida aks ettiriladi XARAJATLAR		Qoldiq hisob varaqlar kreditida aks ettiriladi DAROMADLAR	
DEBET KREDIT		DEBET KREDIT	
Ko`paytirish (+)	Kamaytiri sh (-)	Kamaytiri sh (-)	Ko`paytirish (+)
Qoldiq visobvaraqlar kreditida aks ettiriladi KAPITA			
DEBET		KREDIT	
Kamaytirish (-)		Ko`paytirish (+)	

Bunga qo`shimcha tarzda, chet el valutalarida operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklar Markaziy bankning hududiy boshqarmalariga rezident va norezidentlarning erkin almashadigan va boshqa xorijiy valutalardagi operatsiyalari va qoldiq summalari to`g`risida hisobot taqdim qiladi va bu hisobot sir tutiladi. Markaziy bank ushbu hisobotlar asosida valuta siyosatini ishlab chiqadi va mamlakat to`lov balansini tayyorlashda foydalanadi.



3-rasm. Moliyaviy hisobotning ahamiyati

Ishonchlilik barcha hisob turlari singari buxgalteriya hisobotlari uchun eng muhim bo'lgan omildir. Ishonchlilik tamoliyilining buzilishi xo'jalik faoliyatining

ixtiyoriy jabhasida biznes-reja tuzish, mulklarni tezkor boshqarish imkoniyatini yo'qolishiga olib keladi. Ushbu tamoyil hisobot va reja ko'rsatkichlarining taqqoslanuvchanligini talab qiladi.

To'liqlilik aniq asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi. Sintetik va analitik hisob ma'lumotlari inventarizatsiya natijalari va auditorlik xulosasi bilan tasdiqlanilishi lozim.

O'z vaqtidalik omili esa topshirilishi lozim bo'lgan moliyaviy hisobotlarni tegishli joyga berilgan muddatda taqdim etishni bildiradi. Mulkdilik shakli va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar barcha tashkilotlar chorak yakunlangan so'ng 30 kun ichida choraklik hisobotni taqdim etishlari lozim. Yillik moliyaviy hisobotni esa yil yakunlanganidan so'ng 90 kun ichida topshirishlari talab etiladi.

Oddiylik tamoyiliga asoslanib, moliyaviy hisobot qisqa va tushunarli bo'lishi kerak. Buxgalteriya hisobining milliy standartdan xalqaro standartga o'tishi bu tamoyil amalga oshishiga keng imkon yaratadi.

Moliyaviy hisobotning tekshirishga qulayligi unda keltirilgan ma'lumotlarning istalgan vaqtda tasdiqlash imkoni mavjudligini bildiradi.

Taqqoslanuvchanlik amalgadi jarayonlar va farqlarni aniqlash maqsadida har xil vaqtda bir xil ma'lumotlarni nazarda tutadi. Buxgalteriya hisobida taqqoslanuvchanlikni ta'minlash maqsadida hisob siyosatiga o'zgarishlar yil boshida kiritilishi lozim. Buxgalteriya hisobi tartibga soluvchi aamldagi me'yoriyhuquqiy hujjatlarning qoidalari bu uchun qo'llanma bo'la oladi. Tuzatishlar esa moliyaviy hisobotda tushuntirish xati va bu tuzatishni amalga oshirishga sabab bo'lgan omil keltirilgan holda beriladi.

Tejamlilik hisobot shakllarini tasniflash va standartlashni nazarda tutadi. Bunda ma'lumotlarning sifatiga zarar yetmasligi juda muhim hisoblanadi. Shundagina ma'lumotlarni qisqartirishga erishiladi.

Rasmiylashtirish tamoyili hisobot ma'lumotlari (xo'jalik muomalalari, mulklar, majburiyatlar) o'zbek tilida va milliy valutada amalga oshirilishini nazarda tutadi. Har bir moliyaviy hisobot korxonalar rahbari va bosh buxgalterining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

E'lon qilish omili O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 20-moddasida belgilangan korxonalar (jumladan, ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, sug'urta kompaniyalari, banklar, fond va Tovar birjalari, investitsiya fondlari va boshqa moliya muassasalari) tomonidan bajariladi.

Yillik buxgalteriya hisoboti keying yilning 1-mayigacha topshirilishi lozim. Xalqaro tajribadan kelib chiqib yillik moliyaviy hisobotning 1-shakl buxgalteriya balansi va 2-shakl moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot e'lon qilinadi. E'lon qilinishidan oldin auditorlik tekshiruvdan o'tgan va ijobiy auditorlik xulosasi olingan hamda xo'jalik yurituvchi subyektning boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Bu tashqi axborot foydalanuvchilari uchun korxonaga capital qo'yish va shunga o'xshagan moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Buxgalteriya balansi



### 5-rasm. Xo'jalik yurituvchi subyekt hisobotlarining turkumlanish me'zonlari

O'zbekiston Moliya vazirligining qoidalari keltirilgan talablarga asosan qisqartirilgan shaklda e'lon qilinishi mumkin. Uning mazmuni auditorlik tashkiloti tomonidan moliyaviy hisobotning ishonchli ekanligi to'g'risidagi xulosada iborat. Korxonaning ichki buxgalteriya hisoboti tijoratsirlarini oshkor qilmaslik maqsadida e'lon qilinmaydi va uni noqonuniy olish va tarqatish javobgarlikka tortilishda sabab bo'ladi.

Hisobotlar axborotlar hajmiga ko'ra xususiy hisobot va umumiy hisobotga bo'linadi. Xususiy hisobot korxonaning bitta faoliyat uchastkasi faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olsa, umumiy hisobot korxonaning butun moliya xo'jalik faoliyatini ifodalaydi.

Tuzilish hajmiga ko'ra hisobotlar tashqi hisobot va ichki hisobotga bo'linadi. Tashqi hisobotlar buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 20-moddasiga muvofiq e'lon qilinadi. Tashqi yillik moliyaviy hisobot korxonaning faoliyati, daromadlilik hamda moliyaviy ahvoli to'g'risida tashqi foydalanuvchilarni axborot bilan ta'minlaydi. Ichki hisobotlar xo'jalik yurituvchi subyektning ichki ehtiyojlaridan kelib chiqib tuziladi.

Hisobot davriyligiga ko'ra joriy va yillik hisobotlarga bo'linadi. Joriy hisobotlar hisobot yili mobaynida muntazam ravishda ma'lum davr oralig'i (choraklik, yarim yillik, 9 oylik) uchun tuziladi. Yillik hisobot hisobot yili tugaganidan so'ng tuziladi.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 16-moddasiga ko'ra moliyaviy hisobot shakllari:

- buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot;
- asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot;
- pul oqimlari to'g'risida hisobot;
- xususiy kapital to'g'risida hisobot;
- izohlar, hisob-kitoblar va moliyaviy hisobotga tushuntirishlar.

Yillik moliyaviy hisobot shakllarini tuzishdan oldin katta tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. U hisob ma'lumotlarining mulklar va manbalarining haqiqiy mavjud qoldiqlariga mosligini tasdiqlaydi. Shu sababli yillik balansni tuzishga yil davomida tuziladigan balanslarga qaraganda juda yuqori ishonchlilikni ta'minlash talabi qo'yiladi.

Bunda tayyorgarlik ishlari barcha turdagi xo`jalik mablag`lari va mablag`lar manbalarini to`liq inventarizatsiya qilishdan iborat.

Hisobotning ayrim shakllarini tuzish jarayonida ularga ma`lum talablar qo`yiladi. Masalan, balansni tuzishda uning ayrim moddalarini baholash qoidalariga rioya qilish kerak. Xo`jalik yurituvchi subyektning mulklari va majburiyatlarini baholashning umumiy tartibi «Buxgalteriya hisobi to`g`risida»gi qonunining 12-moddasida belgilangan. Buxgalteriya balansi ayrim moddalarining bahosini shakllantirish tamoyillari quyidagi yondashuvlarni nazarda tutadi:

- pul to`lash yo`li bilan sotib olingan mulklar sotib olish uchun qilingan haqiqiy xarajatlar bo`yicha baholanadi;
- bepul olingan mulklar balansda hisobga olingan sanadagi bozor bahosi bo`yicha aks ettiriladi;
- xo`jalik yurituvchi subyektning o`zida tayyorlangan mulklar ularni tayyorlash xarajatlarning summasi bo`yicha balansga qabul qilinadi;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo`yicha amortizatsiya hisoblash xo`jalik yurituvchi subyektning moliya-xo`jalik faoliyati natijalari qanday bo`lishidan qat`i nazar amalga oshiriladi;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar balansda qoldiq qiymati bo`yicha baholanadi;
- mulklar va majburiyatlarni baholashning boshqacha uslublari amaldagi qonunchilik va me`yoriy hujjatlarga zid bo`lmagan hollarda ruxsat etiladi.

Moliyaviy hisobotlar shakllariga qo`yiladigan umumiy talablarga ko`ra ularni bo`yab tuzatish va noaniqliklar bo`lmasligi lozim. Agar xatoliklar aniqlansa, ular o`rnatilgan qoidalar bo`yicha tuzatilishi lozim. Hisobotlarida aniqlangan xatoliklar qaysi davrga taalluqli bo`lishlaridan qat`i nazar hisobot davridan keyingi birinchi davrda tuzatilishi lozim. Tuzatishning bunday ko`rinishi ichki audit xizmati yoki nazorat organlari tomonidan aniqlangan, tekshiruvlar va inventarizatsiya chog`ida aniqlangan noaniqliklarni tuzatishga ruxsat etiladi. Tuzatishlar tegishli tarzda izoh berilib, tuzatish sanasi ko`rsatilgan holda rahbar va bosh buxgalter imzosi bilan tasdiqlanadi.

#### 4. Xulosa va takliflar

Moliyaviy hisobotlarining tarkibi va shakllari hamda ularni to`ldirish tartibi to`g`risidagi yo`riqnomaga O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni tuzishda avvalo ularning ishonchliligi va bankning moliyaviy va operatsion faoliyatini to`liq aks ettirishi juda muhim ahamiyatga ega. Banklarda tayyorlanayotgan hisobotlar boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun shakllantirilib, ular to`liq, aniq hamda sifatli ma`lumotlar asosida tuzilgan bo`lishi zarur. Moliyaviy hisobotlar investorlar, aksiyadorlar, bank mijozlari va foydalanuvchilar uchun tushunarli bo`lishi va ular qaror qabul qilishi uchun zaruriy barcha ma`lumotlar bilan ta`minlay olishi lozim.

Buxgalteriya balansini tuzishda isbotlovchi hujjatlar bilan tasdiqlangan hisob yozuvlari asosida to`ldirilishi lozim. Balansni tuzishdan oldin analitik hisob schotlari bo`yicha qoldiqlar va oborotlar bosh daftardagi schotlar bo`yicha qoldiqlar va oborotlar bilan solishtirilib, tekshiriladi. Bunda ularning tengligiga ishonch hosil qilish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev M. Tashqi savdo–statistik o‘rganishning obyektini sifatida. – 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun. Lex.uz
3. Аничкина Ольга Александровна ФГБОУ ВО «Московский государственный университет технологий и управления имени К.Г. Разумовского (Первый казачий университет)», Москва, Россия Доцент кафедры «Финансов, бухгалтерского учета и экономической безопасности»
4. Капустина Надежда Валерьевна ФГБОУ ВО «Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации», Москва, Россия Профессор Департамента экономической безопасности и управления рисками Доктор экономических наук, доцент
5. Ergashev, Mirjon. "МИНТАҚАЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШИНИ СТАТИСТИКА ТИЗИМИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАСHTIRISH: МИНТАҚАЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШИНИ СТАТИСТИКА БАҲОЛАШИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*) 13.13 (2022).

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

